



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Mahmudova Go'zal Samadjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliyaviy tahlil" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish hisobi hamda tahlilini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar, xulosalar keltirilgan va uning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Kredit va qarz munosabatlariga kirishadigan korxonalarining moliyaviy hisobotlarini tashqi foydalanuvchilar uchun shaffofligini ta'minlash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jalb etilgan kredit va qarz mablag'larining ularni moliyaviy barqarorligiga ta'sirini to'g'ri baholash va oqilona qarz siyosatini yuritish maqsadida moliyaviy ko'rsatkichlar asosida jalb qilinadigan kreditning maksimal miqdorini aniqlash tartibi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kredit, qarz, kreditga layoqatlilik, shartli majburiyatlar, kredit va qarz mablag'lari samaradorligi, foizli va foizsiz qarzlar, milliy valyutadagi kreditlar, xalqaro valyutadagi kreditlar.

Abstract: The article presents scientific proposals, conclusions and reveals its specific aspects on improving the accounting and analysis of the use of credit and debt funds by business entities. The article presents a procedure for determining the maximum amount of credit to be attracted based on financial indicators in order to ensure the transparency of financial statements of enterprises entering into credit and debt relations for external users, to adapt them to the requirements of international financial reporting standards, to correctly assess the impact of credit and debt funds attracted by business entities on their financial stability, and to conduct a rational debt policy.

Keywords: Credit, debt, creditworthiness, contingent liabilities, efficiency of credit and borrowed funds, interest-bearing and interest-free loans, loans in national currency, loans in international currency.

Абстрактный: В статье представлены научные предложения, выводы и раскрыты специфические аспекты совершенствования учета и анализа использования кредитных и заемных средств хозяйствующими субъектами. Представлена процедура определения максимального объема привлекаемого кредита на основе финансовых показателей с целью обеспечения прозрачности финансовой отчетности предприятий, вступающих в кредитно-заемные отношения с внешними пользователями, адаптации ее к требованиям международных стандартов финансовой отчетности, корректной оценки влияния привлеченных хозяйствующими субъектами кредитных и заемных средств на их финансовую стабильность и проведения рациональной заемной политики.

Ключевые слова: Кредит, долг, кредитоспособность, условные обязательства, эффективность кредитования и заемных средств, процентные и беспроцентные займы, кредиты в национальной валюте, кредиты в международной валюте.

Kirish (Введение/Introduction).

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda bank kreditlari va qarz mablag'lari muhim o'rin tutadi. Jahon tajribasiga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uzluksizligi va rivojlanishida kredit va qarz munosabatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank kreditlari va korporativ qarzlardan foydalanish ko'lamini tobora kengayib bormoqda. Shu boisdan, Xalqaro moliya instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida global qarz 348 trillion dollarga yetib, rekord darajadagi yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi.¹ Ushbu jarayonlarda qarz beruvchilar va oluvchilarning o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish, kredit va qarzlarning qaytarilmaslik xavfini pasaytirish hamda jalb qilingan qarz mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil etish, yuritish hamda ularning iqtisodiy tahlilini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning faoliyat uzluksizligini ta'minlash maqsadida muqobil moliyaviy resurslarni shakllantirish, kapital va qarz bozorlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, "Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish"² ning strategik vazifa sifatida belgilanishi kredit va qarz mablag'lari bo'yicha munosabatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va uni takomillashtirishni taqozo etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda kredit va qarz mablag'larini xorijiy va

mahalliy tajribani qiyosiy tahlil qilish asosida buxgalteriya hisobini yuritishni tashkil qilish, kredit va qarz mablag'laridan foydalanishni kompleks tahlil qilish zarurati oshib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Kredit va qarz mablag'larining mohiyati to'g'risida o'tgan asrlardan tortib, shu davrgacha amalga oshirilgan juda ko'p tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli davr va adabiyotlarda kredit va qarz mablag'larining mohiyatiga turlicha qarashlar va turli talqindagi ta'riflar berilganini ko'rishimiz mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'lari hisobi hamda tahlili metodologik asoslarini o'rganish xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va maqolalarda ham o'z aksini topgan. Xususan, ular qatoriga I.N.Oleynikova, A.S.Viskrebenseva, I.V.Andryushenko, A.S.Tepliyakovalar kabi taniqli xorijiy olimlarni kiritishimiz mumkin.

Jumladan, I.N.Oleynikova o'z asarlarida "Kredit – bu pul yoki tovar shaklidagi ssuda bo'lib qaytib berish sharti asosida odatda foiz to'lovi asosida beriladi"³ degan ta'rifni keltiradi. Ammo, bizning fikrimizcha kreditning qaytarilishi va foiz to'lovidan tashqari ham boshqa xususiyatlari mavjud.

Masalan, A.S.Tepliyakovaning fikricha: "Qarz mablag'larini jalb qilishga zaruriyat korxonaning eng aktiv likvid aktivlarining vaqtincha tanqisligi, xomashyo, materiallar, sotish uchun tovarlar va asosiy ishlab

¹ <https://journalrecord.com/2026/02/26/global-debt-348-trillion-2025-iiif/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 yil. <https://www.lex.uz>.

³ Олейникова И.Н. Финансы, денежное обращение и кредит. Таганрог, ТРТУ. 1996. 98б.

chiqarish fondlarini sotib olish sababli paydo bo'ladi⁴.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan E.A.Akramov, A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, M.Q.Pardayev, Sh.Z.Abdullayeva, M.Y.Raximov, B.N.Mo'yidinov, A.J.To'ychiyev, S.K.Maxmudov, A.N.G'ulomxo'jayev, N.N.Mavlonovlar tomonidan korxonalarining kredit va qarzi mablag'lari hisobi hamda tahlilining nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish muammolarining ayrim jihatlarini o'rganilgan.

Iqtisodchi olim A.To'ychiyev: "Majburiyat deyilganda xo'jalik yurituvchi bir subyektning boshqa subyektga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va boshqa harakat natijasida yuzaga keladigan hamda keyingi o'zaro hisoblashishlarga asos bo'luvchi huquqiy munosabatlar" deb tarifi bergan⁵.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning tadqiqotlarida korxonalarining kredit va qarzi mablag'lari hisobi hamda tahlilini ayrim jihatlarini tadqiq etilgan bo'lsa-da, ushbu masala alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rilgan. Bugungi kuchli raqobat va jadal iqtisodiy o'sish sharoitida korxonalarining jalb qilingan qarzi mablag'laridan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolarni chuqur tahlil etish va zamonaviy usullardan foydalanib baholash bilan bog'liq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hanuz dolzarbligicha qolmoqda.


Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotimiz xo'jalik yurituvchi subyektlarda kredit va qarzi mablag'lari hisobi hamda tahlilini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo'lib, aniq vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot ishimizda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy fikrlash, taqqoslash, guruhlash kabi nazariy-tadqiqot usullari, kuzatish, savolnomalar tuzish va hujjatlarini tahlil qilish kabi amaliy tadqiqot usullari, omilli tahlil, vizualizatsiya, modellashirish kabi matematik-statistik usullar bilan birga buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning maxsus usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Respublikamizda biznesni yanada rivojlantirish va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratilayotgan kredit va qarzi mablag'lari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga biznes subyektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini bank kreditlari hisobiga qoplanishi yildan yilga o'sib bormoqda (1-rasm).

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, respublikamizda tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kredit miqdori 2025-yilga kelib 2018-yilga nisbatan 3,87 barobarga, shundan yuridik shaxslar uchun ajratilgan kreditlar hajmi esa 2,70 martaga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2024-yilga nisbatan olib qaraganimizda esa 2025-yilda jami kredit miqdori 35,79 % ga o'sganini, yuridik shaxslar uchun ajratilgan kreditlar hajmi esa 30,96 % ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar dinamikasi (mlrd.so'mda)⁶

Shuningdek, respublikamiz iqtisodiyotining drayver korxonalaridan biri hisoblangan "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan jalb qilingan kredit va qarzi hajmining ham yildan-yilga o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda (1-jadval).

**1-jadval
"O'zbekneftgaz" AJ tomonidan jalb qilingan kredit va qarzlarning trend tahlili⁷**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1. Jami kredit va qarzi, mlrd.so'm	22339	37478	34538	43601	46493	53030	59639
2. O'sish darajasi, %:							
2.1. Zanjirli usul	100,0	167,77	92,16	126,24	106,63	114,06	112,46
2.2. Bazisli usul	100,0	167,77	154,61	195,18	208,12	237,39	266,97

1-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda jalb qilingan kredit va qarzlarning zanjirli usulda hisoblangan o'rtacha o'sish sur'ati yillik 19,9 foizni tashkil etganligini, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich -7,84 foizga pasayganligini ko'rish mumkin. Bazisli usulda tahlil qilinganda 2018-yilga nisbatan eng yuqori o'sish darajasi mos ravishda 2022-2024-yillarga to'g'ri kelib, o'rtacha o'sish 105 foizni tashkil qilmoqda. Bunday yuqori o'sish sur'atlari aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi tizim tashkilotlarni moliyalashtirish tobora ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Bu esa jamiyatda kredit va qarzi mablag'lari hisobini samarali yuritish hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirishni moliyaviy boshqaruvning muhim vazifasiga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob-siyosati"ning 78-bandiga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyekt "Foiz stavkalari, shartnoma majburiyatlarini qoplash shartlari, qoplash ketma-ketligi, murojaat shartlari hamda mukofot va diskont summaları moliyaviy hisobotga izohlar qismida yoritib berilishi kerak"⁸. Biroq, amaldagi schyotlar rejasida foizli va foizsiz qarzlarni alohida hisobga olish yuzasidan analitik schyotlar tizimi keltirib o'tilmagan. Shuningdek, foizli qarzar korxonaning har oydagi foiz xarajatlar mavjudligi va moliyaviy faoliyatga doir pul mablag'lari chiqimi yuzaga kelishini taqazo etadi. Bu esa axborot foydalanuvchilar uchun korxonaning joriy va uzoq muddatli to'lov qobiliyatini baholashda muhim ko'rsatkich sanaladi. Bundan, tashqari xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida foizsiz qarzi munosabatlar vujudga kelganda, qarzi oluvchi uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 299-moddasiga binoan soliq oqibatlarini kelib chiqadi. Bu esa soliq organlari uchun foizsiz qarzlarni alohida hisobga olish, ularga doir axbotlarni moliyaviy va soliq hisobotlarida alohida ochib berishni talab etadi. Shu boisdan, olib borilgan tadqiqotlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob-siyosatiga 6821 - "Qisqa muddatli foizli qarzarlar", 6822 - "Qisqa muddatli foizsiz qarzarlar", 7821 - "Uzoq muddatli foizli qarzarlar" va 7822 - "Uzoq muddatli foizsiz qarzarlar" nomli ishchi schyotlarni kiritish taklifi asoslandi. Ushbu schyotlarning qo'llanilishiga doir buxgalteriya yozuvlari quyidacha bo'ladi (2-jadval).

**2-jadval
Foizli va foizsiz qarzlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi bo'yicha tavsiyalar⁹**

T/r	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Schyotlar korrespondensiyasi	
		Debet	Kredit
1.	Qarzi beruvchilardan uzoq va qisqa muddatli foizli qarzarlar kelib tushdi	5110	6821, 7821
2.	Qarzi beruvchilardan uzoq va qisqa muddatli foizsiz qarzarlar kelib tushdi	5110	6822, 7822
3.	Foizli qarzarlar bo'yicha foiz ko'rinishidagi xarajatlar tan olindi	9610	4690
4.	Qarzi oluvchining foizsiz olingan qarzarlar bo'yicha qayta moliyalash stavkasidan (QMS) kelib chiqib daromadidan to'lanadigan soliq summasi hisoblanganda (Qarzi summasi*QMS/365* qarzdan foydalanilgan kun*soliq stavkasi)	9810	6410
5.	Foizli va foizsiz qarzarlar to'lab berilganda	6821, 6822, 7821, 7822	5110

⁴ Теплякова Анна Сергеевна. Организация бухгалтерского учета и аудита займов и кредитов. Автореф. дисс. ... к.э.н. - Москва. 2005.

⁵ А.Ж.То'ychiyev. "Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari". Avtoref. diss. ... i.f.d. - Toshkent. 2011

⁶ Manba: www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁷ "O'zbekneftgaz" AJning 2018-2024-yillar uchun MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸ 3544-сон 06.08.2024. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari (1-sonli BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"ni tasdiqlash haqida 78-band.

⁹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya hisobi analitik schyotlari orqali foizli va foizsiz qarzlarning to'g'risidagi axborotlar qarz beruvchilar guruhi, qarzni olinishi shakli (moddiy, moliyaviy va nomoddiy) asosida ham tahliliy tarzda shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar qarz kapitali tarkibida asosiy ulushni bank kreditlari egallamoqda. Bank kreditlarining katta qismi milliy valyutada taqdim etilayotgani bilan bir qatorda, chet valyutasidagi kreditlar ham oshib bormoqda. Xususan, Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda yilda chet el valyutasida berilgan kreditlar so'm ekvivalentida 113,6 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan 19,6 trillion so'm yoki 17,3 foizga oshgan.¹⁰

Chet valyutasidagi kreditlarda valyuta kursi o'zgarishi bilan bog'liq risklar mavjud bo'lib, buning natijasida valyuta kurs farqidan daromad va zarar yuzaga keladi. Bu esa korxonada moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda ham ushbu jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu boisdan, tadqiqotlarimiz natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarda milliy va xorijiy valyutadagi kreditlar uchun alohida analitik schyotlar ochish orqali ushbu qarz turlariga doir axborotlar shaffofligini ta'minlash taklif etildi. Unga ko'ra, ishchi schyotlar rejasiga 6811-Milliy valyutadagi qisqa muddatli bank kreditlari, 6812-Chet valyutasidagi qisqa muddatli bank kreditlari, 7811-Milliy valyutadagi uzoq muddatli bank kreditlari, 7812-Chet valyutasidagi uzoq muddatli bank kreditlari kiritildi. Ushbu schyotlarga oid xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo'lishi tavsiya etildi (3-jadval).

3-jadval
Milliy va chet el valyutasida olingan bank kreditlarining buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi bo'yicha tavsivalar¹¹

T/r	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Schyotlar korrespondensiyasi	
		Debet	Kredit
1.	Milliy valyutada uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari olindi	5110	6811,7811
2.	Chet el valyutasida uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari olindi	5200	6812, 7812
3.	Bank kreditlari bo'yicha foiz ko'rinishidagi xarajatlar tan olindi	9611, 9612	6921, 6922
4.	Chet el valyutasida ifodalangan bank kreditlari qayta baholandi:	6812, 7812	9540
	a) valyuta kursi oshganda		
	b) valyuta kursi pasayganda	9620	6812, 7812
5.	Milliy va chet valyutasidagi uzoq muddatli bank kreditlari joriy qismga o'tkazilganda	7811, 7812	6951, 6952
6.	Milliy va chet valyutasidagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari to'langanda	6811, 6812, 6951, 6952, 7811, 7812	5110-553

Kredit va qarzlarning alohida turlari bo'yicha hisob yuritilishi natijasida shakllantiriladigan buxgalteriya axborotlari pirovardida moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topmog'i darkor. Bu orqali axborot foydalanuvchilarni investitsion qaror qabul qilish yuzasidan ishonchli va shaffof axborotlar bilan ta'minlashga erishiladi.

Tadqiqotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarda kredit va qarz mablag'lari bilan bog'liq tavsiya qilinayotgan sintetik va analitik schyotlardagi axborotlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mazmunan boyitishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi (4-jadval).

4-jadval
Moliyaviy hisobot shakllariga kredit va qarzlarga oid axborotlarni ochib berish yuzasidan takliflar¹²

№	Moliyaviy hisobot shakllari	Satr kodi	Yoritib berish taklif etilayotgan ko'rsatkichlar
1.	Buxgalteriya balansi	571	Milliy valyutadagi uzoq muddatli bank kreditlari (7811)
		572	Chet el valyutasidagi uzoq muddatli bank kreditlari (7812)
		581	Uzoq muddatli foizli qarzlarning (7821)
		582	Uzoq muddatli foizsiz qarzlarning (7822)
		731	Milliy valyutadagi qisqa muddatli bank kreditlari (6811)
		732	Chet el valyutasidagi qisqa muddatli bank kreditlari (6812)
		741	Qisqa muddatli foizli qarzlarning (6821)
		742	Qisqa muddatli foizsiz qarzlarning (6822)
		751	Milliy valyutadagi uzoq muddatli bank kreditlarining joriy qismi (6951)

¹⁰ www.cbu.uz Markaziy bank sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

¹¹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

		752	Chet el valyutasidagi uzoq muddatli bank kreditlarining joriy qismi (6952)
		753	Uzoq muddatli foizli qarzlarning joriy qismi (6953)
		754	Uzoq muddatli foizsiz qarzlarning joriy qismi (6954)
2.	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	131	Uzoq va qisqa muddatli foizsiz qarzlarning bo'yicha soliq to'lash maqsadida hisoblangan daromadlar (9531)
		151	Chet el valyutasidagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha valyuta kurs farqidan daromad (9541)
		201	Chet el valyutasidagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha valyuta kurs farqidan zarar (9621)
		211	Qarz kapitalini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar (9640)
3.	Pul oqimlari to'g'risida hisobot	111	Milliy valyutadagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha to'langan foizlar
		112	Chet valyutasidagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha to'langan foizlar
		113	Uzoq va qisqa muddatli foizli qarzlarning bo'yicha to'langan foizlar
		114	Uzoq va qisqa muddatli foizsiz qarzlarning bo'yicha to'langan soliq to'lovi
		151	Milliy valyutadagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha pul kirimi va chiqimi
		152	Chet valyutasidagi uzoq va qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha pul kirimi va chiqimi
		153	Uzoq va qisqa muddatli foizli qarzlarning bo'yicha pul kirimi va chiqimi
		154	Uzoq va qisqa muddatli foizsiz qarzlarning bo'yicha pul kirimi va chiqimi
5.	Izohlar	-	Xo'jalik yurituvchi subyekt kredit va qarzlari to'g'risida umumlashgan axborot

Taklif etilayotgan ko'rsatkichlarning moliyaviy hisobot satrlarida qo'shimcha ravishda ochib berilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini yanada ishonchliroq baholash, moliyaviy natijalar va pul oqimlari yuzasidan prognozlarini aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy va xalqaro standartlar talablarini tadqiq etish asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit va qarzlari to'g'risida moliyaviy hisobotga ilovalarda ochib berilishi zarur bo'lgan axborotlar va ularning mazmuni quyidagicha tizimlashtirildi (5-jadval).

5-jadval
Moliyaviy hisobotga ilovalarda kredit va qarzlarga oid ochib beriladigan axborotlar tarkibi va mazmuni¹³

№	Ochib beriladigan axborotlar	Ochib beriladigan axborotlar mazmuni
1.	Majburiyatlarining tasnifi va tarkibi	Qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlar ajratilishi
		Kreditlar, obligatsiyalar, lizing majburiyatlari va boshqa qarzlarning tarkibi
		Har bir asosiy qarz turi bo'yicha balans qiymati
2.	Kredit va qarz shartlari to'g'risida ma'lumot	O'tgan yil bilan taqqoslama ma'lumotlar
		Foiz stavkasi (qat'iy yoki o'zgaruvchan)
		To'lov muddati va qaytarish jadvali
3.	Moliyaviy risklar haqida axborot	Ta'minot (garov, kafillik mavjudligi)
		Moliyaviy ko'rsatkichlarga qo'yilgan cheklovlar
		Kredit riski
		Likvidlik riski (majburiyatlarining muddati bo'yicha tahlili)
5.	Baholash va hisob siyosati	Foiz stavkasi riski foiz stavkasi o'zgarishiga sezgirlik tahlili)
		Valyuta riski (xorijiy valyutadagi qarzlarning ulushi, valyuta kursi o'zgarishi)
		Qarzni dastlabki tan olish usuli (amortizatsiyalangan qiymat)
		Samarali foiz stavkasi usuli qo'llanilishi
		Diskontlash shartlari

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

		Qayta tasniflash yoki qayta baholash holatlari
6.	Qarz harakati to'g'risidagi ma'lumot	Davr boshi va oxiridagi qoldiq
		Yangi jalb qilingan kredit va qarzarlar
		Kredit va qarzlarning hisobot davrida qoplangan qismi
		Kapitalizatsiya qilingan foizlar
		Valyuta kurs farqlari

Jadvalda keltirilganlardan tashqari axborot foydalanuvchilar uchun muhim bo'lgan boshqa turdagi ma'lumotlar ham moliyaviy hisobotga ilovalarda o'z aksini topishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit va qarz mablag'lari jalb qilayotganda nafaqat kredit va foiz summasini bank yoki qarz beruvchiga qaytarib to'lashni, balki, qancha miqdorda kredit va qarz jalb etsa, maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash ustuvor ahamiyatga ega. Shu boisdan, tadqiqotlarimiz natijasida jalb etiladigan kredit va qarz mablag'lari samaradorligi, eng avvalo, ularning olinishi mumkin bo'lgan qarz kapitalining maksimal hajmiga bog'liqligi to'g'risida ilmiy xulosaga ega bo'ldik.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, kredit miqdorining maksimal hajmini aniqlashda moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar asosida moliyaviy ko'rsatkichlar orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning iste'mol qila oladigan kredit hajmini quyidagicha aniqlash tavsiya etildi (6-jadval):

$$KMMH = (O^*AMMS*SFO^*+QQ)^*(100-d)\% \quad (1)^{14}$$

Bunda, KMMH – kredit miqdorining maksimal hajmi; O*AMMS=O*MM(480-satr)+UMM(490-satr)-UMA(130-satr) – O'z aylanma mablag'larining mavjud summasi; SFO* = SF¹ / SF⁰ – Sof foydaning o'zgarishi; QQ (040 satr) – Qimmatli qog'ozlar; d – kreditning foiz stavkasi.

6-jadval

"FAZO-LUXE" MCHJda kredit miqdorini maksimal hajmi hisob-kitobi (tavsia)¹⁵

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Summasi
1.	O'z aylanma mablag'larining mavjud summasi(O*AMMS)	O*MM(480-satr) ^{1-sh} + UMM(490-satr) ^{1-sh} – UMA(130-satr) ^{1-sh}	19 833 173,11
2.	Qimmatli qog'ozlar(QQ)	040 satr ^{1-sh}	-
3.	Sof foydaning o'zgarishi (SFO*)	SF ¹ / SF ⁰ (270-satr) ^{2-sh}	1,27
4.	Kreditning foiz stavkasi	Kredit shartnomasida keltirilgan	5% ¹⁶
Kredit miqdorining maksimal hajmi(KMMH):			23 928 723,36

Ilmiy izlanishlar natijasida korxonaga nuqtayi nazaridan kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini aniqlashni moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan balli baholash usuli ishlab chiqildi.

Kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashni taklif etilgan balli baholash usulida dastlab, kredit va qarz mablag'lari samaradorligini tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlari orqali baho beriladi (7-jadval).

7-jadval

Kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash mezonlari¹⁷

T/r	Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Moliyaviy leverij koeffitsiyenti	Qarz kapitali/O'z kapitali	≤0,5 (20 ball)	20
			0,51-1 (15 ball)	
			1.1-2.0 (10 ball)	
			>2,0 (0 ball)	
2.	Xususiy kapital multiplikatori	Qarz kapitali/Jami aktiv	≤0,3 (20 ball)	20
			0,31-0,5 (15 ball)	
			0,51-0,7 (10 ball)	
			>0,7 (0 ball)	

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁵ "FAZO-LUXE" MCHJ 2023-yil moliyaviy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁶ Kredit AQSH dollarida jalb qilingani uchun krediti foizi 5% deb olingan.

3.	Foizlarni qoplash koeffitsiyenti	EBIT/Foiz xarajatlari	≥ 3,0 (20 ball)	20
			1,5-2,9 (15 ball)	
			1,0-1,49 (10 ball)	
			<1,0 (0 ball)	
4.	Qarzga xizmat ko'rsatish va qoplash koeffitsiyenti	Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi/Umumiy qarz to'lovlari (asosiy qarz+foizlar)	≥ 1,5 (20 ball)	20
			1,25-1,49 (15 ball)	
			1,0-1,24 (10 ball)	
			<1,0 (0 ball)	
5.	Moliyaviy leverij samarasi	(Aktivlar rentabelligi-o'rta foiz stavkasi)x (1-foydali solig'i stavkasi) x Moliyaviy leverij koeffitsiyenti	≥ 5 % (20 ball)	20
			1,1-4,9 % (15 ball)	
			0,1-1 % (10 ball)	
			<0 manfiy (0 ball)	
JAMI TO'PLANADIGAN BALL				100

7-jadvalda keltirilgan tartib asosida kredit va qarzarlar samaradorligi tahlil qilingandan so'ng, uning natijalari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarda kredit va qarzlardan foydalanish samaradorligi bo'yicha yakuniy xulosalar chiqarilib, korxonalar toifalarga ajratiladi hamda boshqaruv uchun zarur xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi (8-jadval).

8-jadval

Kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash natijalari¹⁸

Umumiy ball	Kredit va qarz mablag'lari samaradorligi toifasi	Boshqaruv uchun xulosa va tavsiyalar
80 - 100	Yuqori samarali	Qarz yuki xavfsiz darajada. Moliyaviy leverij samarasi ijobiy ishlayotgan. Korxonaga yangi kreditlar jalb qilish orqali loyihalarni kengaytirish imkoniyatiga ega.
60 - 79	Samarali	Samaradorlik qoniqarli. Qarz ko'rsatkichlari me'yorda, biroq qo'shimcha qarz olishdan oldin bozor xavf-xatarlari va pul oqimlari barqarorligi ehtiyotkorlik bilan tahlil qilinishi talab etiladi.
40 - 59	Past samarali	To'lov qobiliyati pasaymoqda, operatsion foyda qarzlarni qoplashga arang yetmoqda. Yangi kreditlar jalb qilish to'xtatilishi va zudlik bilan xarajatlarni qisqartirish siyosati joriy etilishi zarur.
0 - 39	Samarasiz	Korxonaga to'lovga qobiliyatsiz va defolt yoqasida. Faoliyat faqat qarz hisobiga aylanmoqda. Zudlik bilan qarz muddatlarini uzaytirish (restrukturizatsiya) va aktivlarni optimallashtirish bo'yicha inqirozga qarshi reja tuzilishi kerak.

Moliyaviy ko'rsatkichlar kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini tashqi axborot foydalanuvchilar uchun ma'lum darajada aniqlash va baholashga xizmat qiladi. Biroq, ichki axborot foydalanuvchilar uchun bu yetarli bo'lmasligi mumkin. Zero, olingan kredit va qarzarlar korxonaning strategik maqsadlariga qay darajada xizmat qilganini, raqobatbardoshlikni qanchalik oshirganini, boshqa iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik naflarni baholash ham korxonaga boshqaruv uchun g'oyat zarur va muhim hisoblanadi. Shu boisdan, tadqiqotlarimiz natijasida kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashning ikkinchi bosqichida nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish zarurligi asoslanib, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini ochib berildi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan BSC (Balanced Scorecard), ya'ni muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi (MKT) metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq degan ilmiy xulosa asosida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Bunda nomoliyaviy ko'rsatkichlar to'rtta yo'nalish bo'yicha

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tanlab olinib, har bir yo'nalishga maksimal 25 ball to'plash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar kiritildi (9-jadval).

9-jadval

Kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash mezonlari¹⁹

MKT yo'nalishlari	Baholanuvchi ko'rsatkich (KPI)	Baholash mezonlari va ballar shkalasi	Maksimal ball
1. Bozor va Mijozlar kesimidagi ko'rsatkichlar	1.1. Bozor ulushi va sotuv hajmining o'sishi	> 5% o'sish: 15 ball	15
		1% – 5% o'sish: 10 ball	
		O'zgarmagan: 5 ball	
		Pasaygan: 0 ball	
1.2. Mijozlar qoniqish indeksi	1.2. Mijozlar qoniqish indeksi	Ijoiy dinamika (yuqori): 10 ball	10
		O'zgarishsiz o'rtacha: 5 ball	
		Shikoyatlar ko'paygan: 0 ball	
2. Operatsion va texnologik jarayonlar samaradorligi ko'rsatkichlari	2.1. Mehnat va uskuna unumdorligi	> 10% gacha oshgan: 15 ball	15
		1% – 10% gacha oshgan: 10 ball	
		O'zgarmagan: 5 ball	
		Pasaygan: 0 ball	
2.2. Yaroqsiz mahsulotlar (brak) ulushi	2.2. Yaroqsiz mahsulotlar (brak) ulushi	> 15% ga qisqargan: 10 ball	10
		1% – 14% ga qisqargan: 7 ball	
		O'zgarmagan: 3 ball	
		Ko'paygan: 0 ball	
3. Loyiha intizomiga rioya etilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar	3.1. Muddatlarga rioya etish	Muddatidan oldin: 15 ball	15
		1 oygacha kechikish: 10 ball	
		1 – 3 oy kechikish: 5 ball	
		3 oydan ortiq muddat: 0 ball	
3.2. Byudjetdan chetga chiqmaslik	3.2. Byudjetdan chetga chiqmaslik	Iqtisod qilingan: 10 ball	10
		< 5% gacha oshib ketgan: 5 ball	
		> 5% dan ko'p xarajat: 0 ball	
4. Kadrlar salohiyati va ekologik ta'sir (ESG) bilan bog'liq ko'rsatkichlar	4.1. Xodimlar qo'nimsizligi	Sezilarli pasaygan: 15 ball	15
		O'zgarishsiz: 5 ball	
		Kadrlar almashinuvi oshgan: 0 ball	
	4.2. Ekologiya va xavfsizlik (ESG standartlari)	4.2. Ekologiya va xavfsizlik (ESG standartlari)	To'liq standartga mos: 10 ball
Qisman o'zgarishlar bor: 5 ball			
Xavf saqlanib qolgan: 0 ball			
JAMI TO'PLANADIGAN BALL:			100

Nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida kredit va qarzlardan foydalanish samaradorligi natijalarini quyidagicha umumlashtirish maqsadga muvofiq deb topildi (10-jadval).

10-jadval

Kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash natijalari²⁰

Jami to'plangan ball	Holat tasnifi	Boshqaruv uchun xulosa va tavsiyalar
80 – 100	Yuqori samarali (Strategik muvaffaqiyat)	Qarz mablag'lari korxonaning har tomonlama o'sishiga xizmat qildi. Texnologik jarayonlar yangilandi, bozor ulushi kengaydi va jamoa barqarorlashdi. Investitsion siyosat to'liq o'zini oqladi.
60 – 79	Samarali (Maqsadli holat)	Nomoliyaviy ko'rsatkichlar qoniqarli darajada. Kredit asosan o'z funksiyasini bajardi, biroq ayrim byudjet yoki muddat kechikishlari, shuningdek, kadrlar va jarayonlarni moslashtirishda kichik kamchiliklar mavjud. O'sish nuqtalarini optimallashtirish zarur.
40 – 59	Past samarali (Operatsion nomutanosiblik)	Qarz olingan bo'lsa-da, ichki jarayonlar va mahsulot sifati kutilganidek yaxshilanmadi. Loyihalarni amalga oshirishda jiddiy kechikishlar bor. Rahbariyat operatsion boshqaruv tizimini va kadrlar siyosatini zudlik bilan qayta ko'rib chiqishi shart.
0 – 39	Samarasiz (Strategik inqiroz)	Qarz mablag'lari maqsadsiz va samarasiz sarflangan. Bozorda ham, ichki tuzilmada ham hech qanday ijobiy o'sish yo'q. Loyiha smetadan chiqib ketgan va bozor raqobatida yutqazilmoqda. Tizimli muammolarni va loyiha boshqaruvini tubdan o'zgartirish talab qilinadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit va qarzlarning holati, tarkibi, dinamikasi ularning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi va xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, kredit va qarzlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda markaziy o'rinda turuvchi moliyaviy leverj samarasi ko'rsatkichiga omillar ta'siri hisob-kitobi bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltirib o'tilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj asosan bank kreditlari hisobiga qondirilib kelinmoqda. Bunda bank kreditlaridan foydalanishda o'z ehtiyojidan kelib chiqib kredit miqdorining maksimal hajmini aniqlash orqali kreditdan foydalanish samaradorligi baholashimiz mumkin, natijada esa olingan kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi ta'minlanadi. O'z iste'molidan ko'proq kredit jalb qilish korxonaning moliyaviy ahvoli nobarqarorlashishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'lari hisobi hamda tahlilini takomillashtirishga, ulardan samarali foydalangan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023 yil. <https://www.lex.uz>.
- Олейникова И.Н. Финансы, денежное обращение и кредит. Таганрог, ТРТУ. 1996. 98б.
- Теплякова Анна Сергеевна. Организация бухгалтерского учета и аудита займов и кредитов. Автореф. дисс. ... к.э.н. – Москва. 2005.
- A.J.To'ychiyev. "Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari". Avtoref. diss. ... i.f.d. – Toshkent. 2011
- www.cbu.uz

¹⁹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.